SIRDARYO VILOYATI YANGIYER SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 30 - mart 66-9-132-Q/22 Yangiyer shahar hokimligi

Yangiyer shahrida dam olish kunlarida yarmarkalarni tashkil etishni samarali yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 avgustdagi 253-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish Qoidalariga muvofiq, shahar hududida dam olish kunlari yarmarkalarini tashkil etish bilan bog‘liq faoliyatni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyat ito‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Yangiyer shahridagi fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yarmarkalar o‘tkazish bo‘yicha bergan taqdimnomalarini inobatga olib, “Yangiyer dehqon (oziq-ovqat) bozori” MCHJ hududida har yakshanba kuni soat 7-00 dan17-00 gacha yarmarkalar tashkil etilishi belgilansin.

2. Yarmarkalarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini va ularni qayta ishlashdan olingan tovarlarni, shuningdek ilgari foydalanishda bo‘lgan oziq-ovqat iste’mol tovarlarini sotishga ruxsat berilishi;

yarmarkalar hududida savdo o‘rinlarining bepul berilishi;

yarmarkalar uchun ajratilgan savdo o‘rinlarining toza va tartibli saqlanishiga sotuvchilar ma’sul ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Yarmarkalarda mahsulotlarni sotish quyidagi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin:

Tovarga oid hujjatlar (tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan sotilayotgan mahsulot jismoniy shaxs tomonidan unga yoki uning oila a’zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi, belgilangan shakldagi hujjat (ma’lumotnoma);

sotuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar.

4. “Yangiyer dehqon (oziq-ovqat) bozori” MCHJ ma’muriyati:

yarmarkalar tashkil etish uchun bozorning aholi uchun qulay bo‘lgan qismidan, bozorning umumiy savdo maydonining 5 foizidan kam bo‘lmagan maxsus joylar ajratilishini;

yarmarkalar uchun ajratilgan hududdan savdo o‘rinlarining bepul berilishini;

yarmarkalar o‘tkazilishini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritishni ta’minlasin va bozorning kirish joylariga e’lonlar joylashtirishni tashkil etilishini inobatga olinsin.

5. Yangiyer shahar davlat soliq inspeksiyasi (Q.Axmedov) har yakshanba kunlari yarmarkalar tashkil etish uchun joy ajratilganligini, o‘tkazilayotganligini hamda yarmarkalar hududida savdo o‘rinlarining bepul berilishini hamda yarmarkalarda tovarga oid hujjatlar mavjudligini doimiy nazorat qilsin.

6. Yangiyer shahar sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bo‘limi (B.Donayev) yarmarkalarda sotilayotgan mahsulotlarning turlariga qarab joylashtirish va ular sifatining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga to‘g‘ri kelishini doimiy nazoratga olsin.

7. Yangiyer shahar IIB (Z.Sobirov) bozor hududida yarmarkalar o‘tkaziladigan kunda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror hokimlikning yangiyer.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Nurmatov) zimmasiga yuklatilsin.

Yangiyer shahar hokimi **I.Xo'jayev**